O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 3 - mart 65-10-212-Q/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 22-fevraldagi 118-10-0-Q/22-son qarori ijrosini ta`minlash to`g`risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston sportchilarining navbatdagi yozgi va qishki Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun tayyorgarlik ishlarini jadallashtirish to‘g‘risida”gi PQ–127-son qarori va Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 22-fevraldagi 118-10-0-Q/22-son qaroriga muvofiq hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ–127-son qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 22-fevraldagi 118-10-0-Q/22-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) 2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlarida (keyingi o‘rinlarda – Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari) g‘olib va sovrindor bo‘lgan O‘zbekiston sportchilari Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan quyidagi miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantirilishi:

oltin medal uchun –200 000 AQSH dollari;

kumush medal uchun – 100 000 AQSH dollari;

bronza medal uchun – 50 000 AQSH dollari;

b) Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik qilish jarayonida respublika hududida o‘tkazilayotgan sport musobaqalari, o‘quv-mashg‘ulotlar yig‘inlarida olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha terma jamoa a’zolarining ishtirokini ta’minlash uchun viloyatlararo yo‘nalishlar bo‘yicha (temir yo‘l va aviachipta) transport xarajatlariga 2022-yil 1-martdan 2024-yil 1-sentyabrga qadar chegirmalar joriy etilishi;

v) Vazirlar Mahkamasi qarori bilan belgilangan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida qatnashish huquqini beruvchi litsenziyalarning, shuningdek, ishtirok etiladigan sport turlarining sonini kamaytirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli bo‘linmalari bilan kelishgan holda Respublika komissiyasi tomonidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining o‘rinbosari I.Dostonov, tuman Turizm va sport bo`limi (A.Niyazov), boshqa manfaatdor bo`lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

2022-yil 1-mayga qadar – sportning dzyudo turini rivojlantirish bo‘yicha;

2022-yil 1-iyunga qadar – sportning taekvondo (WT) va sport kurashlari turlarini rivojlantirish bo‘yicha;

2022-yil 1-aprelga qadar – O‘zbekistonda qishki sport turlarini kompleks rivojlantirishni;

2022-yil 1-iyulga qadar – sportning og‘ir atletika va stol tennisi turlarini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari loyihasiga takliflar ishlab chiqib, belgilangan tartibda viloyat hokimligiga kiritsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.Dostonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**